

FALSAFIY VA YURIDIK QONUNLAR MUNOSABATI

REJA:

- 1.** Inson huquqiy shaxs sifatida. Huquqiy shaxs shakllanishining asosiy mehanizmlari.
- 2.** Falsafiy qonunlar,yuridik qonunlar,ularning huquqiy o‘zaro bog‘liqligi, farqi va jamiyat hayotidagi mehanizmlari. .

- 3.** Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari. Bazis va lokal qonunlar. Falsafaning asosiy qonunlari.
- 4.** Huquqshunoslikda amal qiladigan qonunlar jamiyatda mavjud huquqiy munosabatlarni shakllantirish masalalari. Huquqshunoslikda qonun tushunchasi. Qonun osti hujjatlar tushunchasi.

Qonun - muayyan shart-sharoitda narsalar, voqealar rivojining xususiyati va yo'nalishini belgilaydigan, ma'lum bir qat'iy natijani taqoza etadigan ob'ektiv dunyodagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiylar, nisbiylar, barqaror munosabatlaridir.

- qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog'lanishlardan faqat muhimlarini, ya'ni shunday bog'lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi, o'zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo'ladi;
- qonun zaruriy bog'lanishlarni ifodalaydi, ya'ni tasodifiy bog'lanishlar, goh paydo bo'lib, goh yo'qolib ketadigan bog'lanish-larga asoslanmaydi;
- qonun narsa va hodisalarning umumiylarini ifodalaydi;
- qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog'lanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi;
- qonun zaruriylik va majburiylikni taqozo qiladi.

Qonunlar amal qilish doirasiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

1. *Eng umumiy qonunlar* – tabiat, jamiyat, tafakkurning istisnosiz barcha ob'ektlariga xos bo'lган universal, falsafiy qonunlar. Ular tabiat, jamiyat taraqqiyotining umumiyligi hamma yerda, doim mavjud bo'lган xossalari, mayllari o'rtasidagi umumiyligi, zaruriy, barqaror ichki takrorlanib turuvchi, muhim ob'ektiv bog'lanishlarini ifodalaydi.
2. *Umumiy qonunlar* - moddalarning saqlanish va aylanish qonuni; butun olam tortishish qonuni va hokazolar.
3. *Xususiy qonunlar* - fizikada qulon qonuni, Mendeleevning kimyoviy elementlarining davriy tizimi, huquqshunoslikda fuqarolik qonuni, saylovlar haqidagi qonun, Jinoyat kodeksi va boshqalar.

Namoyon bo'lishiga ko'ra qonunlar ikki guruhga bo'linadi:

1. *Dinamik qonunlar* – mutloq ma'nodagi sababiy, zaruriy bog'lanishlarni ifodalaydi.
2. *Statistik qonunlar* – mutlaq ma'nodagi zaruriy qonunlar emas, ular ehtimollik sababiga muvofiq bog'lanishlarni ifodalaydi. Masalan: nishonga otilgan o'qning mo'ljalga tegish ehtimoli va hokazo.

Qonuniyat - qonunning tasodifiy sharoitlar qamrovida muayyan hodisa, jarayonlarda ifodalanishi. Masalan, organizm tuzilishi va biron-bir badiiy asarning yaratilishi, xar biri uchun umumiyl bo'lgan biologik yoki estetik qonunlar asosida namoyon bo'ladi. Lekin shu bilan birga xar bir hodisa bu umumiyl qonunlardan tashqari xususiy qonunlarga ham egadir.

Huquq nuqtai nazaridan qonun – bu oliv yuridik kuchga ega bo’lgan, davlatning qonun chiqaruvchi organi yoki aholi tomonidan to’g’ridan-to’g’ri, referendum o’tkazish talablariga muvofiq qabul qilingan va o’zida qonunning amal qilish hududi, muddati va shaxslar doirasida huquqiy munosabatlar sub’ektlari faoliyatining umumiy namunasini mujassamlashtirgan normativ-huquqiy hujjat.

Huquqshunoslikda qonun tushunchasidan tashqari qonun osti hujjatlar degan tushuncha ham yuritiladi. **Qonun osti hujjatlar** o’z navbatida:

- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- O’zbekiston hukumatining qarorlari;
- Boshqa ijroiya hokimiyat organlarining hujjatlari;
- Mahalliy davlat hokimiyatining normativ hujjatlariga bo’linadi.

Huquqshunoslikda qonunlarni bir necha mezon va usullarga ko'ra tasniflanadi. Davlat tuzilishiga ko'ra, mavjud normalar hususiyati va qabul qilinish tartibiga ko'ra, tarmoqlarga ko'ra, qonun shakliga ko'ra, huquqiy tartibga solish mexanizmiga ko'ra, huquqiy tartibga solish predmetiga ko'ra va hokazo. Jumladan, mohiyati va yuridik kuchiga ko'ra qonunlar – konstitutsiyaviy va oddiy qonunlar. Ular, o'z navbatida, joriy va kodifikatsiya qilingan qonunlarga bo'linadi. Yana bitta katta guruh qonunlar turkumiga tartibga solish ko'lami va ob'ekti bo'yicha tasniflangan umumiy va maxsus qonunlar kiradi. Umumiy qonunlar ijtimoiy munosabatlarning keng sohasini tartibga soladi, ularga kodekslar kiradi. Maxsus qonunlar esa ijtimoiy munosabatlarning cheklangan miqdorini tartibga soladi (Garov to'g'risidagi qonun, Banklar va bank tizimi haqidagi qonunlar). Bundan tashqari, davriy qonunlarga byudjet qonunlari, favqulodda qonunlarga harbiy qonunlar kiradi

Falsafiy qonunlarning huquqshunoslik fani va amaliyoti uchun metodologik ahamiyati

- a) *Voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyat dialektikasi.*
- b) *Olamning mavjudligi — miqdor va sifat voqeligi tarzida.
Taraqqiyotda tadrijiylik tamoyili.*
- v) *O'zgarish va rivojlanish jarayonida o'z-o'zini inkor etish
tamoyili. Vorislik va yangilanish.*